IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
MAXSUS SON , VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

# FIKRLASH, SO`Z VA E`TIQOD ERKINLIGI HUQUQI



| | |
|---|---|
| Muallif | **Mengliyeva Shahnoza Bahriddin Qizi** |
| O'qish yoki ish joyi | **Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti Yurisprudensiya yo`nalishi talabasi** |
| Qabul qilindi | **29.09.2023** |
| Nashr qilindi | **29.09.2023** |



**Annotatsiya**

Ushbu maqola demokratik davlatlarning asosiy belgilaridan biri bo`lgan fikrlash, so`z va e`tiqot erkinligi borasidagi fikr va mulohazalar olib boriladi.

**Kalit so`zlar**

demokratiya, fikrlash qobilyati, axborot olish huquqi, konstitutsiyaviy tuzum, e`tiqot erkinligi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar tufayli fuqarolar huquq va erkinliklarini ta`minlash borasida juda katta o`zgarishlar bo`lmoqda. Xususan Bosh qomusimiz bo`lmish konstitutsiyaning olish besh foizi o`zgarishi bu fikrimizga yaqol dalildir. Yurt boshimiz ta`kidlaganlaridek har kim munosib turmush tarzida yashash huquqiga egadir.

Demokratik davlatda fuqarolarning fikrlash, so`z va e`tiqod erkinliklariga ega bo`lishi muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki omma, jamoa oldida o`z fikr mulohazalaringizni erkin namoyon qila olishingiz, yoki qarashlaringizni yozma tartibda bayon qila olishingizni anglatadi.

Konstitutsiyaning 33-moddasida:

Har kim fikrlash, so`z va e`tiqot erkinligi huquqiga ega.

Har kim istaggan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.

Davlat internet jahon axborot tarmog`idan foydalanishni ta`minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo`lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitusiyaviy tuzumni, aholining sog`lig`ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoa xavfsizligini hamda jamoa tartibini ta`minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo`riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo`lgan doiradayo`l qo`yilmaydi.

Bilamizki qadim davrlarda qanchadan qancha diniy mojarolar bo`ganiga buyuk o`mish guvoh. Ammo birni ustidan boshqasi ustun bo`lolmas. Ushbu tarixiy haqiqatlarga tayangan holda mamlakatimizda diniy murosasozlikka erishilgan. Yangi tahrirdagi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida:

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e`tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e`tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo`l qo`yilmaydi.

deb mustahkamlab qo`yilgan.

Fikrlash qobilyati – insonni boshqa mavjudotlardan farqlovchi xuxusiyat. Insonning fikrlashi natijasida taraqiyot davom etadi. Dunyo rivojlanish tajribasi shuni ko`rsatadiki, inson faqat erkin fikirlaganda, erkin fikrlash uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgandagina, taraqqiyot bo`lishi mumkin. Fikrlashning cheklanishi, tarraqiyotning cheklashdir.

Erkin fikrlash bo`lsayu u ro`yobga chiqarilmasa, fikrlar bildirilmasa, unda hech qanday naf bo`lmaydi. Erkin fikrlashni amalga oshirish, uning samarasidan foydalanishuchun, albatta so`z erkinligi ha bo`lishi kerak. Bu degani, har bir shaxs o`z fikrini har qanday joyda va vaqtda so`z orqali bayon qila bilishiga imkoniyat yaratish kerak. Ya`ni fikrlash va so`z orqali ifodalay olish bir-biriga bog`liq tushunchalardir. Fikr yuritish va uni ifodalsh erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo`lgan taqdirdagina qonun bilan taqiqlanishi mumkin.

Inson erkin fikrlash va uni so`z orqali erkin bayon qilish uchun axborotga ega bo`lish kerak. Shu sababli fuqarolarning o`zi uchun zarur axborotlarni izlash, olish va tarqatish huquqi kafolatlanadi. Galaballashuv zamonida yashar ekanmiz internet tarmoqlaridan foydalanishni bilmaydigan insonlarni topish qiyin, hamda istalgan axborotni bir zumda topishimiz mumkin. Buning uchun qidiruv tugmasini bosish kifoya.

Biroq ommaviy madaniyatdan, o`zbek milliy odob-axloq qoidalariga to`g`ri kelmaydigan ma`lumotlardan, turli xil ijtimoiy roliklardan himoyalanishni o`rganish lozim. Chunki axborotni olish va tarqatish inson ma`naviyatiga bog`liqdir. Shuningdek boshqa shaxslarning sha`ni-qadr qimmatini yerga uruvchi, shaxsiy sir tutiladigan ma`lumotlarini tarqatish mumkin emas.

Bu huquq yana Konstitutsiyaning 34- moddasi bilan ham kafolatlanadi. Ya`ni Konstitutsiyaning mazkur moddasi axborot olish imkoniyatini kengaytiradi. Unga asosan:

Davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari har kimga o`z huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo`lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta`minlash shart. Bu bilan Konstitutsiya barcha organ va mansabdor shaxslarga fuqarolarning huquqlarini ro`yobga chiqarish uchun aniq majburiyat yuklaydi.

Konstitutsiya normalarida nafaqat fikrlash, so`z erkinligi, shuningdek, e`tiqot erkinligi ham belgilangan. Bu orqali fuqarolar o`z dunyoqarashiga ega bo`ladi, bo`layotgan voqealarga o`z munosabatini bildiradi. E`tiqot erkinligi dinga, siyosatga munosabatida namoyon bo`ladi.

Fuqarolarning e`tiqot erkinligi orqali dinga munosabati aniqlanadi. Mamlakatimiz barcha fuqarolari uchun (millatidan, irqidan, qat`iy nazar ) erkin xohlagan diniga e`tiqot qilishlari mumkin. Demak, e`tiqot erkinligi quydagilarda o`z ifodasini topadi:

- har bir fuqaroning xohlagan dinga e`tiqot qilishi ;

- hech qanday dinga e`tiqot qilmaslik;
- hech qanday diniy qarashlar majburiy singdirishlarga yo`l qo`yilmaydi;

Har qanday dinda insonni ma`naviy-axloqiy kamol topishga, birodarlik, bag`rikenglikka undovchi ijobiy g`oyalar mavjud. Shuning uchun ham diniy qarashlar, e`tiqot qilish taqiqlanmaydi. Ushbu huquq xalqaro miqyosda e`tirof etilgan erkinlik bo`lib, u < Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi >da ham mustahkamlangan.

Ushbu huquq orqali fuqarolar diniy ta`lim olish, din namoyondasi bo`lish imkoniyatlarini ham beradi. Faqat hech kim o`z ixtiyoriga zid tarzda diniy ta`limot olishga majbur qilinmaydi.

Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham bor, bu dinni niqob qilib olgan g`arazli insonlarni ta`sir doirasiga tushub qolishdan mustahkam himoyalanish shartdir. Faqtgina eng ishonchli malumotlarga tayangan holda ilm olish zarur. Chunki, bugungi kunda diniy ekstremizm, terorizm kabi turli oqimlar insonlarni o`z og`ushiga tortib ketmoqda.

Bizning mamlakatimiz qadim buyuk siymolar yetishib chiqqan zamindir. Ahmat Yassaviy, Najmiddin Kubro va Naqishbandiy kabi taridat asoschilari hamda Imom Buxoriy, At-Termiziy kabi buyuk ajdodlarimizning buyuk merosi yosh avlod uchun mimg yildan buyon poydevor bo`lib kelmoqda. Ushbu manbalardan oqilona foydalanish, uni yosh avlodga bekamu-ko`st yetkazish har birimizning insoniy burchimiz hisoblanadi.

Hayot har doim rivojlanishda, shuning uchun ijtimoiy munosabatlar ham rivojlanadi, yangi munosabatlar vujudga keladi. Bu esa, qonunchilikni o`zgartirishga zaruriyatni tug`diradi. Konstitutsiya qabul qilganligining 27 yilligiga bag`ishlangan marosimda Sh.Mirziyayev: < Bugungi kunda mahaliy va xorijiy nufuzli ekspertlar ishtirokida fuqarolarimizning vijdon va e`tiqot erkinligi borasidagi konstitutsiyaviy huquqlarni to`la ta`minlashga qaratilgan qonunlar ishlab chiqmoqdamiz > deb ta`kidladilar

Konstitutsiya normalariga fuqarolarning firklash, so`z, e`tiqot erkinligi hamda axborot olish, izlash, tarqatish huquqini mustahkamlar ekan, bu erkinlik aslo konstitutsiyaiy tuzumga qarshi qaratilmasligi, uning buzulishiga yo`l qo`ymaslik nazarda tutiladi.

Chunki konstitutsiyaviy tuzum xalq manfaatiga mos keluvchi tartiblarning Konstitutsiya bilan mustahkamlanishi natijasidir. Konstitutsiyaviy tuzumning buzulishi og`ir oqibatlarga, hatto qon to`kilishlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham faqat xalq manfaatlari, konstitutsiyaviy manfaati yo`lida ba`zi cheklashlar, man qilishlar o`rnatiladi.

Yana xavfsizlik nuqtai nazardan kelib chiqib, erkin fikr yuritish va ifodalsh erkinligidavlar va boshqa sirlarga taalluqli bo`lmasligi belgilangan

Fikrlash, so`z va e`tiqot erkinligidagi ba`zi cheklovlar davlatlar tajribasida uchraydi. Chunki shunday bo`lmasa, davlat kuchsizlanib qoladi, kuchsiz davlar esa, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, manfaatlarini himoya qila olmaydi. Sirlari oshkor bo`lib, zaif bo`lgan davlatlarga boshqa davlatlar, qo`shni davlatlar har xil tazyiqlar o`tkazishga, o`z shartlarini qo`yishga harakat qiladilar. Shuning uchin Konstitutsiyadagi erkinliklarni ayrim hollarda, qonun asosida cheklashlar

aslo huquq va erkinlikni cheklash emas, aksincha, huquq va erkinlikni keng amal qilishiga yaratilgan imkoniyatlar deb qarash kerak.

Fuqarolarning axborot sohasida huquq va erkinliklari demokratik jamiyat asaolaridan biri ekanligi President Konsepsiyasida alohida ta`kidlanadi:<...fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta`minlash masalasi, insonning axborot olish, axborotni va o`z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o`zida mujassam etgan bo`lib, bu O`zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhum sharti, ta`bir joiz, tamal toshi hisoblanadi> .

Fuqaro va shaxslarning shaxsiy huquq hamda erkinlik huquq va erkinliklar tizimida yetakchi o`rinda turadi. Chunki bu huquqlar tabiiy huquqlar bo`lib, insonning tug`ilishi bilan vujudga keladi. Davlat esa, anashu huquqlarni ta`minlashga majburdir. Shuning uchun bu vazifalarni bajarish maqsadida O`zbekiston davlati barcha choralarni ko`rgan. Shaxsiy huquq va erkinlik Konstitutsiyamizda keng va mukammal belgilangan va ularning amalga oshirishni ta`minlovchikuchli tizim barpo etilgan, hamda bu tizim muntazam ravishda takomillashtirilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O`zekiston Respublikasi Konstitusiyasi
2. O.T.Husanov <Konstitutsiyaviy huquq> Toshkent 2020

WORDLY KNOWLEDGE